

**Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha eng yaxshi o‘quv
adabiyotlarni aniqlash yuzasidan respublika tanlovini o‘tkazish tartibi
TARTIBI**

I. Umumiy qoidalar

1. Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha eng yaxshi o‘quv adabiyotlarni aniqlash yuzasidan respublika tanlovini o‘tkazish tartibi (*keyingi o‘rinlarda-Tartib deb yuritiladi*) O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 22-avgustdagi “O‘quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi hamda o‘quv adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliv ta’lim muassasalarida foydalananishga qo‘yiladigan talablarni belgilash to‘g‘risida”gi 284-son buyrug‘i hamda 2023-yil 7-martdagi “Oliy ta’lim tizimida zamonaviy o‘quv adabiyotlarni yaratish va nashr etish tizimini takomillashtirish bo‘yicha 2023 – 2024-yillarga mo‘ljallangan Dastur” asosida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Tartib ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha eng yaxshi o‘quv adabiyotlarni aniqlash yuzasidan respublika tanlovini o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi va belgilangan fanlar bo‘yicha “**Eng yaxshi darslik**” nominatsiyasida o‘tkaziladi.

3. Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha eng yaxshi o‘quv adabiyotlarni aniqlash bo‘yicha respublika tanlovi **2023-yilning iyul-avgust oylarida** o‘tkaziladi. Kelgusida tanlovni o‘tkazish muddati vazirlik tomonidan belgilanadi. Bu haqida har yili vazirlik veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlar orqali e’lon berib boriladi.

4. Tanlovda davlat oliv ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarini va tadqiqotchilar ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha **oxirgi uch yil ichida** tayyorlagan o‘quv adabiyotlari bilan qatnashishlari mumkin.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

5. Tanlovning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

a) ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha eng yaxshi o‘quv adabiyotlarni yaratish tizimini takomillashtirish, eng yaxshi o‘quv adabiyotlarni aniqlash va ta’lim jarayoniga tatbiq etish;

d) talaba-yoshlarni kreativ fikrlashga undaydigan zamonaviy va innovatsion o‘quv adabiyotlarni yaratish bo‘yicha mualliflarni rag‘batlantish va ularni ommalashtirish.

III. Tanlovni o‘tkazish muddati va bosqichlari

6. Tanlov quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

a) 1-bosqich tanlovning dastlabki bosqichi bo‘lib, uni 2023-yilning 31-iyuliga qadar oliv ta’lim muassasalarida o‘tkazish. Unda:

tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan o‘quv adabiyotlarni qabul

qilish, tahlil etish va saralash;

eng yaxshi o‘quv adabiyotlarni tanloving respublika bosqichida qatnashishi uchun tavsiyanomalar berish.

b) 2-bosqich tanloving respublika bosqichi bo‘lib, uni 2023-yilning 1-avgustidan 31-avgustiga qadar o‘tkazish. Unda:

oliy ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan o‘quv adabiyotlarni qabul qilish;

2023-yilning 10-avgustidan 25-avgustiga qadar o‘quv adabiyotlarni ekspertlar guruhlari tomonidan ko‘rib chiqish.

d) 3-bosqich yakuniy bosqich bo‘lib, 2023-yilning 31-avgustiga qadar tanlov g‘oliblarini aniqlash va e’lon qilish.

IV. Tanlovnvi o‘tkazish tartibi

7. Tanlov komissiyasining vazifasi va huquqlari quyidagilardan iborat:

Tanlovda qatnashayotgan o‘quv adabiyotlarni baholash uchun soha mutaxassislaridan iborat Ekspert guruhlari tarkibini shakllantiradi va tasdiqlaydi;

Ekspert guruhlari shaxsiy tarkibining oldindan e’lon qilinmasligini ta’minlaydi;

Tanlovda o‘z ishlari bilan qatnashayotgan talabgorlarni Ekspert guruhi tarkibiga kiritilmasligini ta’minlaydi;

Ekspert guruhlari tomonidan har bir fan bo‘yicha takliflarni baholash mezonlarini ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta’minlaydi;

Tanlov bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

Tanlovga taqdim etilgan o‘quv adabiyotlarni baholash mezonlarini ishlab chiqish va tasdiqlashni ta’minlaydi;

Tanlovga kelib tushgan o‘quv adabiyotlarni va ularga taalluqli hujjatlarini dastlabki texnik ekspertizadan o‘tkazadi;

Ekspert guruhlari ish faoliyatini tashkil etadi;

Ekspert guruhlari xulosalarini umumlashtiradi;

Tanlovning shaffof vaadolatli o‘tkazilishini ta’minlaydi;

Tanlov g‘oliblari ro‘yxatini tasdiqlaydi hamda ularning rag‘batlantirilishini tashkillashtiradi.

8. Tanlov komissiyasi yig‘ilishini rais, u bo‘lmaganda, rais o‘rinosari boshqaradi.

9. Tanlov komissiyasi yig‘ilishi a’zolarning uchdan ikki qismi ishtiroy etganda, vakolatli hisoblanadi.

10. Tanlov komissiyasi qarori uning a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lganda, Tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

11. Tanlov komissiyasi tanlovga kelib tushgan takliflar bo‘yicha g‘oliblarni belgilash va boshqa tashkiliy masalalarni hal etadi.

12. Tanlov komissiyasi Ishchi organining vazifalari quyidagilardan iborat:

13. Tanlovda ishtiroy etadigan takliflar tegishli ta’lim muassasasi (tashkilot)ning ruxsati asosida tegishli hujjatlari bilan birlashtiriladi. Kundan boshlab belgilangan vaqtida Ishchi organga taqdim etiladi.

14. Takliflar taqdim etish muddat tugaganidan keyin Tanlov komissiyasi belgilangan vaqtida takliflar mavjud bo‘lgan yig‘ma jildlarni ochadi.

15. E'londa ko'rsatilgan oxirgi muddatdan kechiktirib taqdim etilgan takliflar Tanlovga qo'yilmaydi. Tanlovda ishtirok etish shartlariga va rasmiylashtirish qoidalariga muvofiq bo'lman takliflar ko'rib chiqilmaydi.

16. Tanlovning aniq muddati Tanlov komissiyasining rayosati (rais, mas'ul kotibning ishtirokida) rasmiy ko'rsatmalarga muvofiq uzaytirilishi (15 kalendar kunidan oshmagan holatda) mumkin.

17. Tanlovga taqdim etilgan takliflar, unga tegishli hujjatlar va taqrizlar qaytarilmaydi.

V. Tanlov bo'yicha taqdim etiladigan hujjatlar

18. Tanlovning Ishchi organiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) Oliy ta'lim muassasasi rahbarining rasmiy yo'llanma xati (*yaratilgan o'quv adabiyotini tanlovda ishtirok etishiga tavsiya berilgani ko'rsatilishi lozim*).

b) Oliy ta'lim muassasasi kengashi qaroridan ko'chirma (*kengash raisi va ilmiy kotib tomonidan imzolanib, tasdiqlangan shaklda*).

d) O'quv adabiyotining nomlanishini tasdiqlangan o'quv rejasidagi fan nomiga muvofiqligi (*o'quv adabiyoti o'quv rejasidagi tegishli fanning nomi bilan bir xil bo'lishi talab etiladi*).

e) O'quv adabiyoti qo'lyozmasi.

f). Ichki va tashqi taqrizlar (*taqrizchilarining F.I.Sh., imzosi va sanasi qayd etilgan asl nusxasi*).

Talabgor tomonidan o'quv adabiyoti va talab etilgan hujjatlar birgalikda yig'ma jildli papkada tanlovning Ishchi organiga (Toshkent shahar, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy) taqdim etiladi.

VI. Tanlovga taqdim etiladigan o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan umumiy talablar

19. Tanlovga taqdim etiladigan o'quv adabiyotlari quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi tavsiya qilinadi:

muayyan fanning mohiyati, mazmuni va mavzularini fan dasturida belgilangan hajmlarda izchillik bilan yoritilishi, o'quv materiallarining mazkur fan orqali ta'lim oluvchilarga berilishi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tartibda tizimli bayon qilinishi;

yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy bilimlarga asoslangan ma'lumotlar (qonunlar, ayniyatlar, tasniflar va hokazo)dan tashkil topishi, illyustratsiyalarga boy, zamonaviy ko'rgazmali tasvir va badiiy-uslubiy jihatdan amaliy faoliyatga qaratilgan bo'lishi;

jahon ilm-fani, texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlarini inobatga olishi, uning ahamiyatini ifodalashi, soha va fanga oid milliy va xorijiy tajriba va ma'lumotlar mantiqiy bir tizimda bayon etilishi;

ta'lim-tarbiya jarayoniga hamkorlik pedagogikasi va o'qitishning interfaol uslublarini tatbiq qilishga ko'mak berishi;

bilim oluvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi, mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otishi;

o'quv adabiyotlaridagi mavzu, mazmun va matnlar uzliksiz ta'limning boshqa turlari va bosqichlaridagi turdosh fanlarning mavzu, mazmun va matnlarini

takrorlamasligi;

rasmlar, grafiklar, jadvallar, sxema va diagrammalar mantiqan maqbul darajada joylashtirilishi, berilgan ma'lumotlar va tushuntirishlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi;

matnlar dizayni maqbul va mukammal bajarilishi, takrorlanuvchi tushunchalar, rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalar, e'tiborni jalb etish uchun zarur bo'lgan jumlalar, misollar va xulosalarni ajratish maqsadida maxsus belgilardan hamda ta'sirchan grafik vositalardan foydalanish;

kasbiy xarakterga ega bo'lgan va bilim oluvchilar mustaqil ishlashi uchun mo'ljallangan muammoli savollar, topshiriqlar, mashqlar, loyihamalar bilan ta'minlanishi;

topshiriqlar va vazifalar keng ko'lamli bilim oluvchilar bajaradigan amaliy ishlarni juftlikda yoki kichik guruhlarda tashkil etish imkoniyatini berishi;

o'quv materiallarida talabalarni faol bo'lish va tanqidiy fikrlashga undash va ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiruvchi jihatlarning mavjud bo'lishi;

tanlov komissiyasining qo'shimcha talablari.

VII. Tanlovga taqdim etilgan o'quv adabiyotlarni baholash va g'oliblarni aniqlash

20. Tanlovga taqdim etilgan adabiyotlar tegishli hujjatlari bilan Ekspert guruhlari a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida baholanadi.

21. Ekspert guruhlarining murojaatiga muvofiq tegishli soha bo'yicha qo'shimcha ekspertlar taklif qilinishi mumkin.

22. Ekspert guruhlarining baholash bo'yicha yakuniy xulosasi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ekspert guruhlarining xulosasi bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

23. Ekspert guruhlarining xulosalari va bayonnomalari Tanlov komissiyasining Ishchi organi tomonidan umumlashtiriladi va natijalarini Tanlov komissiyasiga taqdim etadi.

24. Tanlov komissiyasi o'zining yig'ilishida ekspertiza xulosalarining natijalarini o'r ganib, tegishli qaror qabul qiladi, yig'ilish bayoni bilan rasmiylashtiradi va tasdiqlaydi.

25. Tanlov o'tkaziladigan har bir fan bo'yicha g'olib deb topilgan 1-o'rin sohiblari (muallif va mualliflar jamoasi)ga vazirlikning maxsus diplomi topshiriladi hamda ularning o'quv adabiyotlari Ekspert guruhlarining tavsiyalari asosida markazlashgan mablag'lar hisobidan nashr etiladi va o'quv jarayonida foydalanish uchun barcha oliy ta'lim muassasalariga tarqatiladi.

VIII. Yakuniy qoidalar

26. Tanlov g'oliblarining ro'yxati e'lon qilingan kundan keyin tanlov tugagan deb hisoblanadi.

27. Mazkur Tartib talablari buzilgan taqdirda, aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.